

HUQUQBUZARLIKLAR MAVZUSIDAGI KONTENTLARING TILI, USLUBI VA JANRLARI MASALALARI

Shaxnoza TAYLAKOVA

dotsent

Filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

taylakovashaxnoza8@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada huquqbuzarliklar mavzusidagi mediakontentlarning lingvistik, stilistik va janriy xususiyatlari, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasiga oid kontent va uning yoshlar auditoriyasiga ta'siri masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi, ijtimoiy tarmoqlar, bosma nashrlar, televideniye, radio va internet nashrlar, mediakontentlarning hususiyatlari.

ВОПРОСЫ ЯЗЫКА, СТИЛЯ И ЖАНРОВ КОНТЕНТА НА ТЕМУ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

Шахноза ТАЙЛАКОВА

доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим аукам

Университет журналистики и массовых коммуникаций

Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

taylakovashaxnoza8@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвистические, стилистические и жанровые особенности медиаконтента на тему правонарушений, а также вопросы, связанные с контентом, направленным на профилактику правонарушений среди несовершеннолетних, и его влияние на молодую аудиторию.

Ключевые слова: профилактика правонарушений среди несовершеннолетних, социальные сети, печатные издания, телевидение, радио и интернет-издания, особенности медиаконтента.

So'nggi o'n yillikda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarlik bilan bog'liq xabarlar, maqolalar va videokontentlar soni sezilarli darajada ortdi. Poraxo'rlik, firibgarlik, oilaviy zo'ravonlik, avtohalokatlar, zo'ravonlik jinoyatlari haqida keng yoritilayotgan materiallar

bugungi OAV makonining asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Bu holat, bir tomondan, ijtimoiy hayotda roʻy berayotgan voqeliklarni koʻrsatsa, boshqa tomondan, ayrim hollarda informatsion manipulyatsiya va stigmatizatsiya vositasiga ham aylanishi mumkin. Huquqbuzarlik mavzusidagi kontentlar axboriy xarakter bilan birgalikda, kuchli emotsional yuklamaga ega ijtimoiy-axboriy hodisa sifatida shakllanadi. Ular oʻz mohiyatiga koʻra huquqiy, ijtimoiy va axloqiy kontekstni oʻzida mujassam etgan holda, omma ongiga taʼsir koʻrsatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Huquqbuzarlik mavzusidagi kontentlar har bir ommaviy axborot vositasida bosma nashrlar, televideniye, radio va internet nashrlarida turlicha til vositalari orqali ifodalanadi. Bu farqlilik har bir platformaning oʻz kommunikativ xususiyatlari, maqsadli auditoriyasi va axborot berish uslubi bilan bogʻliq. Quyida ushbu platformalar boʻyicha til tahlili birma-bir koʻrib chiqiladi.

Anʼanaviy bosma nashrlari matbuot tilining eng klassik, tahrirlangan, normativ va nisbatan neytral variantidan foydalanadigan vositadir. Huquqbuzarliklar haqidagi materiallarda quyidagi xususiyatlar koʻzga tashlanadi: rasmiy normativ tilning ustuvorligi, leksik xolislik afzal koʻriladi. Oʻquvchining axborot olishini maqsad qilgan holda emotsiyaga emas, fakt va hujjatga asoslangan yondashuv ustuvor sanaladi. Manbalar manzili koʻpincha “ishonchli manbalarga koʻra”, “prokuratura maʼlumotiga koʻra” deb yashirin beriladi. Masalan, tadqiqotimiz obyekti hisoblangan “Postda” gazetasida chop etilgan “Tahlillar, oʻrganishlar, natijalar” materiali statistik dalillarning koʻpligi, sintaktik ixchamlik, emotsional neytrallik va hujjatli dalillarning ustuvorligi bilan ajralib turadi [1;3], huquqiy-axborotli yoʻnalishdagi publitsistik janrning rasmiy-hisobot diskursiga mansub namunasi sifatida ilmiy tahlil qilish imkonini beradi. “Urganch tumanida “Yurt tinchligi – xalq farovonligi sari” keng qamrovli tezkor profilaktik tadbiri oʻtkazildi. Oʻn kun davom etgan mazkur tadbirda asosiy eʼtibor kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat xavf-

sizligini ta'minlash, jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratildi. Tadbir davomida 3163 ta aholi xonadoni, 601 ta dala-hovli, 572 ta savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonasi ko'zdan kechirildi. Bundan tashqari, 523 nafar muqaddam sudlangan, 397 nafar probatsiya hisobida turgan, 106 nafar alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan shaxs bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazildi. E'tiborli jihati, o'tgan yillardan buyon ochilmay kelayotgan 6 ta jinoyat fosh etildi. Tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan 6 nafar shaxs qo'lga olinib, jazo muqarrarligi ta'minlandi.

Bedarak yo'qolgani uchun qidirilayotgan 3 nafar shaxs tezkor surishtiruvlar davomida topildi. Bulardan tashqari, tezkor tadbirlar davomida 32 ta jinoyat tezkor xodimlar tashabbusi bilan aniqlanib, gumonlanuvchi shaxslar hibsga olindi. Shundan 12 tasi giyohvandlik, 5 tasi qonunga xilof ravishda valyuta ayirboshlash, 4 tasi qo'shmachilik, 1 tasi firibgarlik, 3 tasi poraxo'rlik, 3 tasi energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish, 1 tasi odam savdosi, 1 tasi noqonuniy qurol saqlash, 1 ta ma'muriy nazorat qoidasini buzish holatlaridir. Olingan tezkor ma'lumotlar asosida 2 nafar shaxs o'z xonadonida 129,5 gramm giyohvandlik vositasini saqlab qo'ygani aniqlandi" Ushbu turdagi matnlar o'z mazmun-mohiyatida ijtimoiy xavfsizlik, huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqiy tartibotni ta'minlash masalalarini yoritishga qaratilgan bo'lib, ularning lingvistik qurilishi rasmiy-huquqiy kommunikatsiya talablariga to'liq mos keladi. Matnda voqea-hodisalar ketma-ketlikka asoslanib, faktlar xronologik tartibda, statistik va hujjatli dalillar bilan mustahkamlangan holda berilgan. Bu yondashuv, Norman Feyrklou ta'kidlaganidek, "institutsional diskursning ijtimoiy legitimlashtiruvchi vazifasi"ni bajaradi, chunki unda axborot subyektiv talqinlardan xoli tarzda taqdim etiladi [2;234]. Buning ma'nosi shundaki, *institutsional diskurs* – bu davlat, huquq-tartibot, siyosiy yoki boshqa rasmiy institutlar nomidan yaratiladigan va tarqatiladigan matnlar majmui. Bunday matnlar nafaqat axborot yetkazadi, balki shu institutning jamiyat oldidagi

mavqeini va hokimiyatini “legitimashtiradi” – ya’ni uni qonuniy, asosli va ishonchli sifatida ko’rsatadi.

Leksik qatlamda normativ-huquqiy terminlarning miqdori ko’p: *“jinoyat ishi qo’zg’atildi”, “gumonlanuvchi shaxs”, “probatsiya hisobida turgan”, “ma’muriy qamoq”, “himoya orderi”, “videokuzatuv kamerasi integratsiya qilindi”* kabi so’z birikmalari mazmunni huquqiy nuqtai nazardan aniqlashtiradi va matnning rasmiy uslubga mansubligini ko’rsatadi. E.A. Kozina ham “huquqiy-axborotli matnning asosiy funksional tayanchi – terminologik qatlam” sifatida ta’kidlaydi. Ya’ni, bunday matnlarning mazmunini tashkil etishda va ularni boshqa janrlardan ajratishda aynan huquqiy terminlarning ko’pligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Terminologik qatlam – bu huquqiy, normativ va ma’muriy sohalarga oid aniq belgilangan, qonunchilikda ishlatiladigan atamalar majmuasi bo’lib, matnning funksional yo’nalishi, uslubiy xususiyati va rasmiy maqomini belgilaydi [3;65].

Maqola matnida statistik birliklarning asosiy qismni tashkil etgan. Sintaktik jihatdan matn oddiy va murakkab gaplarning muvozanatiga ega bo’lib, gaplar asosan “bir fakt – bir gap” prinsipiga qurilgan. Ekspressiv-emotsional birliklar deyarli uchramaydi. Shunga qaramay, ayrim “E’tiborli jihati” kabi diskurs markerlari o’quvchi diqqatini voqeaning muhim bo’limlariga qaratish vazifasini bajaradi. Ijtimoiy konnotatsiyali birikmalar *“kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish”, “tazyiq va zo’ravonlikka uchragan”, “noqonuniy saqlash”* kabi so’zlar esa mazmunni ijtimoiy-huquqiy kontekst bilan boyitadi, o’quvchida jinoyat va huquqbuzarliklarning ijtimoiy oqibatlari haqida tasavvur uyg’otadi.

O’zbekiston telekanallarida huquqbuzalik mavzusidan ko’ra ko’proq jinoyatchilik mavzusi *“Bir jinoyat izidan”* ko’rsatuvi orqali yoritilgan. Mazkur format, odatda, allaqachon tergovni yakunlangan jinoyatlarni rekonstruksiya qilish orqali voqea tafsilotlari sahnalashtirilgan epizodlar, guvoh va tergovchi izohlari orqali taqdim etiladi. Ushbu ko’rsatuv bir necha yillar davomida respublika miqyosida huquqbuzarlik va jinoyatchilik mavzulariga ixtisoslashgan

teleloiyhaga aylangan, You Tube platformasida ham alohida sahifasiga ega. Bugungi kunda jinoyatchilik bo'yicha milliy TV da "*O'tkir tergov*" ko'rsatuvi mavjud. Unda eski yopilgan tergov hujjatlariga muvofiq mudhish qotilliklarni qanday bo'lgani, jinoyatchining qanday jazolangani haqida o'rganadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, *voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar* maxsus ko'rsatuv tarzida muntazam yoritilmagan. Ushbu turdagi jinoyatlar, ko'pincha, yangiliklar formatidagi dasturlarda *reportaj* yoki *qisqa axborot* shaklida, xabarlar tarkibida berilgan. Natijada, teleauditoriya voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi, ijtimoiy omillari va psixologik xususiyatlariga oid tizimli va chuqur media-ma'lumotdan ko'ra, faqat alohida voqealar haqidagi epizodik xabarlar bilan cheklanib qolgan. Albatta, bunga *format va reyting siyosati, huquqiy va axloqiy cheklovlar* va o'z o'zidan *ixtisoslashgan jurnalistik yondashuvning yo'qligi* sabab bo'lishi mumkin. Telekanallar, asosan, tomoshabinlarda kuchli emotsiya uyg'otuvchi (masalan, og'ir qotilliklar) voqealarni yoritishga urg'u beradi. Voyaga yetmaganlar ishtirokidagi huquqbuzarliklar esa ko'pincha ijtimoiy-pedagogik masala sifatida ko'rilgan. Voyaga yetmagan shaxslarning shaxsi, yuzi va ismini oshkor etmaslik talabi O'zbekistonning "Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni va xalqaro huquqiy normalar bilan belgilangan.

So'nggi o'n yillikda ijtimoiy tarmoqlar va videoplatformalarning keng ommalashuvi voyaga yetmagan auditoriyaning ijtimoiylashuv jarayonini tubdan o'zgartirdi. YouTube, TikTok, Instagram kabi platformalar nafaqat axborot iste'moli, balki til va muloqot madaniyatining shakllanishida ham muhim o'rin tutmoqda. Mazkur platformalarda bolalar va o'smirlarga nisbatan lingvistik hamda psixologik ta'sirlar global miqyosda dolzarb masalaga aylangan.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy raqamli kommunikatsiya tizimlarining eng faol va dinamik segmentlaridan biridir. Ularning asosiy kuchi kontentni foydalanuvchiga yetkazish mexanizmini avtomatlashtiruvchi murakkab algoritmik tizimlarda mujassam. Ushbu algoritmlar foydalanuvchi xatti-

harakatlarini, qiziqishlarini, platformadagi o‘zaro aloqalarini va vaqt bo‘yicha faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, unga moslashtirilgan kontent oqimini shakllantiradi. Natijada, har bir foydalanuvchi individual ravishda tuzilgan, “shaxsiylashtirilgan” axborot muhitida faoliyat yuritadi.

Algoritmning ishlash prinsipi odatda quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

Ma’lumot yig‘ish va profil yaratish. Platforma foydalanuvchi haqidagi ma’lumotlarni (ko‘rilgan videolar, bosilgan “like”lar, izohlar, qidiruv so‘rovlari, kuzatish vaqti) yig‘adi va ulardan foydalanuvchining psixografik portretini tuzadi.

1. *Kontent saralash va ustuvorlik belgilash.* Algoritm foydalanuvchi uchun “qiziqarli” bo‘lish ehtimoli eng yuqori bo‘lgan kontentni tanlab, uni lenta yoki tavsiyalar bo‘limida yuqori o‘ringa chiqaradi. Bu jarayonda hissiy jihatdan kuchli ta’sir ko‘rsatadigan, bahsli yoki dramatik materiallar ko‘pincha ustuvorlikka ega bo‘ladi, chunki ular ko‘proq “engagement” (reaksiya, izoh, ulashish) keltiradi.

2. *O‘zaro ta’sir siklini mustahkamlash.* Foydalanuvchi ko‘proq o‘ziga mos, hissiy ta’sirli kontent iste’mol qilgan sari, algoritmi uni yanada chuqurroq “axborot pufagi” (information bubble) ichiga kiritadi. Bu holat foydalanuvchi e’tiborini uzoqroq saqlash va platformada faol bo‘lish vaqtini maksimal oshirishga qaratilgan.

Bunday algoritmik modellar foydalanuvchining *dopamin sikliga* ta’sir qiladi: tez-tez mukofot (qiziqarli post, kulgili video, sensatsion yangilik) berib, miya faoliyatida qoniqish hissini uyg‘otadi va bu jarayonni qayta-qayta takrorlashga undaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar algoritmлари odamni mantiqiy qarorlar qabul qilishdan ko‘ra, tezkor hissiy javob berishga moyil qiladi.

Ayniqsa, voyaga yetmagan auditoriya uchun bunday mexanizmlar kuchliroq ishlaydi. Chunki ularning prefrontal korteksi hissiy impulslarni boshqarish va uzoq muddatli oqibatlarni baholashga mas’ul miyaning qismi

to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli, algoritmlar tomonidan taqdim etilgan emotsional boyitilgan kontent ularda tezkor reaksiyani, qiziqishni va hatto qaramlikni yuzaga keltirishi ehtimoli yuqori.

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchini faqat kontent iste'molchisiga emas, balki *kontent yaratuvchisiga* aylantirish orqali ham ta'sir kuchini oshiradi. Like va izohlar orqali keladigan tezkor ijtimoiy tasdiqlash ("instant social validation") mexanizmi voyaga yetmagan foydalanuvchilarda o'zini qadrlash hissini algoritmik tarzda boshqarishga imkon beradi. Natijada, ular ko'proq e'tibor jalb qiladigan, hissiy jihatdan kuchli, ba'zan esa haddan ziyod dramatik yoki provokatsion kontent yaratishga moyil bo'ladilar.

Shu bilan birga, algoritmlar vizual ustuvorlikka tayanadi. TikTok, Instagram Reels, YouTube Shorts kabi formatlar foydalanuvchiga qisqa, intensiv va tez hazm bo'ladigan vizual narrativlarni taqdim etadi. Bunday formatlarda *lingvistik minimalizm* kuzatiladi – matn yoki og'zaki nutq qisqa, ammo hissiy va konnotativ jihatdan kuchli bo'ladi. Bu esa til uslubini asta-sekin dramatisatsiya, soddalashtirish va hissiy keskinlik tomon siljitadi.

Algoritmik ta'sir va voyaga yetmaganlarning til madaniyatidagi o'zgarishlar. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining asosiy vazifasi – foydalanuvchi diqqatini imkon qadar uzoqroq ushlab turish va ularning platformadagi faolligini oshirishdir. Bu jarayonda tilning ishlatilish shakllari ham algoritmik talablar ta'sirida o'zgaradi. Voyaga yetmaganlar orasida ayniqsa uchta asosiy til xususiyati kuzatiladi:

Hissiy kuchaytirish (emotional amplification). Algoritmlar ko'pincha "ko'p reaksiya olgan" kontentni ilgari suradi, shuning uchun foydalanuvchilar matn va nutqda hissiy ta'sirni oshirishga intiladilar. Masalan, oddiy "hodisa yuz berdi" iborasi o'rniga "dahshatli voqea butun shaharni larzaga soldi" kabi dramatik ifodalar ishlatiladi. Natijada, *denotativ* (lug'aviy) ma'no ikkinchi darajaga tushib, *konnotativ* (assotsiativ, hissiy) ma'no yetakchi bo'lib qoladi.

Tilning qisqarishi va vizuallashtirilishi. Qisqa videolar va tezkor postlar formatida matn minimal miqdorda bo‘ladi. Gaplar ko‘pincha bir-ikki so‘zdan iborat, lekin kuchli ta’sir qiladigan so‘zlar tanlanadi. Emoji, GIF va memlar til elementlari sifatida integratsiya qilinadi. Bu lingvistik jihatdan yozma va og‘zaki nutqning vizual kodlarga qo‘shilib ketishiga olib keladi.

Sensatsionalizm va dramatizatsiya. Huquqbuzarlik haqidagi kontentlarda sarlavha va taqdimot shakli odatda, kuchli emotsional fon bilan boyitiladi. Bu usul auditoriyani tez jalb qiladi, lekin tilning neytralligi va obyektivligiga putur yetkazadi. Voyaga yetmaganlar shu uslubni o‘z muloqotlarida ham qo‘llay boshlaydilar, natijada ularning nutqida ortiqcha dramatik konstruksiyalar ko‘payadi.

Huquqbuzarlik haqidagi kontent va uning yoshlar auditoriyasiga ta’siri

1. *Ko‘ngilochar yoki “trend” kontekstida* – huquqbuzarlik motivlari asosida yaratilgan sketclar, memlar, dramatik sahnalar. Algoritmilar aynan ikkinchi turdagi kontentni ko‘proq tarqatadi, chunki u foydalanuvchilarda hissiy reaksiyani tezroq uyg‘otadi va ko‘proq “like” va izoh to‘playdi. Bu esa huquqbuzarlik mavzusining jiddiy ijtimoiy muammo sifatida qabul qilinishini susaytirishi, uni “shou” yoki “trend” darajasiga tushirishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy tarmoqlar ikki tomonlama ta’sirga ega: ijobiy tomoni – bu ijodiy o‘zini ifoda qilish, axborotga erkin kirish va yangi til birliklarini o‘zlashtirish imkoniyati; salbiy tomoni esa – lingvistik tajovuz, nomaqbul kontent va ijtimoiy stereotiplarning bolalar tiliga singishi. Mazkur hodisani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa YouTube va TikTok platformalarida izohlar va videokontent orqali tarqaladigan lingvistik birliklar yosh foydalanuvchilarning leksik fondini shakllantirishda kuchli omilga aylangan.

Algoritmik tanlov jarayoni ham ushbu til xususiyatlarini mustahkamlaydi. Ko‘proq reaksiyalar (like, sharh, repost) olgan postlar algoritm tomonidan tez-tez tavsiya qilinadi, bu esa hissiy jihatdan “kuchaytirilgan” kontentning

ommalashuviga olib keladi. Huquqbuzarlik haqidagi neytral, analitik materiallar esa ko‘pincha algoritmik filtrdan o‘ta olmaydi, chunki ularning hissiy ta’siri pastroq bo‘ladi. Natijada voyaga yetmaganlarning axborot muhiti hissiy intensivlikka yo‘naltirilgan kontent bilan to‘ldiriladi.

Tilning bunday transformatsiyasi huquqiy ong va ijtimoiy qadriyatlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, huquqbuzarlik voqealari “trend” va “ko‘ngilochar” kontekstda taqdim etilganda, ular jiddiy ijtimoiy muammo sifatida qabul qilinmaydi. Ikkinchidan, zo‘ravonlik va jinoyatning vizual hamda lingvistik normalashuvi voyaga yetmaganlarda bu hodisalarga nisbatan hissiy sezgirlikni pasaytiradi. Uchinchi jihat, provokatsion va shok effektiga qaratilgan til elementlari kundalik muloqot uslubiga kirib keladi, bu esa yoshlarning ijtimoiy norma va etik qoidalarini idrok etishida muayyan og‘ishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ijtimoiy tarmoqlar tilini tahlil qilishda faqat leksik-semantik darajani emas, balki algoritmik seleksiya jarayonini ham hisobga olish zarur. Chunki kontentning qanday taqdim etilishi va qanday auditoriyaga yetib borishi masalasi tilning real ijtimoiy ta’sirini belgilovchi omillardan biridir. Huquqbuzarlik mavzusida ishlab chiqilgan dramatik va sensatsion til modellarining ommalashuvi esa voyaga yetmaganlarning nafaqat lingvistik repertuarini, balki ularning ijtimoiy ongini ham shakllantiruvchi kuchli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday til uslubining ommalashuvi, bir tomondan, auditoriya diqqatini jalb qilish va axborot oqimida farq qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, huquqbuzarlik haqidagi obyektiv tasavvurlarni buzadi. Voyaga yetmaganlar ushbu uslubni nafaqat passiv ravishda iste’mol qiladilar, balki faol takrorlaydilar. Natijada ularning nutqiy faoliyatida bir nechta lingvistik xususiyatlar shakllanadi:

1. *Hissiy kuchaytirish (emotional amplification)* – hodisalarni tasvirlashda hissiy rang-baranglikning ortishi, zo‘rma-zo‘raki drammatizatsiya.

2. *Tilning qisqarishi va vizuallashtirilishi* – matn o‘rni emoji, piktogramma va qisqa iboralar egallashi.

3. *Kriminal jargonning integratsiyasi* – ommaviy kontentda uchraydigan huquqbuzarlik bilan bog‘liq atamalarning kundalik nutqqa ko‘chishi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot davomida an‘anaviy nashrlar, telekanallar, xorij va O‘zbekiston tajribasi, internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlar o‘rtasidagi farqlar, ularning axborot yetkazish uslubi, til xususiyatlari va auditoriyaga ta‘sir mexanizmlari turli xil. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy nashrlarda axborot odatda qat‘iy tahririy nazoratdan o‘tadi, til me‘yorlariga amal qilinadi va faktlarga tayangan neytral uslub qo‘llaniladi, bu esa ularni ishonchli manba sifatida ajratib ko‘rsatadi, biroq yoshlar auditoriyasi uchun joziba darajasi past bo‘lishi mumkin. Telekanallar esa vizual va audio vositalar orqali voqealarning hissiy qabul qilinishini kuchaytiradi, ayrim hollarda dramatizatsiya va sensatsion elementlar qo‘shilishi kuzatiladi, ammo milliy telekanallarda voyaga yetmaganlar uchun kontentni nazorat qilish darajasi nisbatan yuqori. Xorij tajribasida, xususan, Yevropa va AQShda bolalarni onlayn xavfdan himoya qilish bo‘yicha kuchli qonunchilik (COPPA, GDPR-K) va monitoring tizimlari amal qiladi, Rossiyada esa davlat nazorati hamda platformalarning o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmlari uyg‘unlashgan. O‘zbekiston tajribasida esa so‘nggi yillarda voyaga yetmaganlarni axborot makonida himoya qilish bo‘yicha qonunlar kuchaytirildi, media savodxonlik tashabbuslari yo‘lga qo‘yildi, biroq ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy, tez tarqaluvchi va ko‘pincha nazoratsiz kontent ustidan samarali boshqaruvni ta‘minlash murakkabligicha qolmoqda.

Internet nashrlari tezkorlik, keng auditoriyaga chiqish va qisqa, diqqatni jalb etuvchi sarlavhalar bilan ajralib turadi, bunda ko‘pincha obyektivlikdan ko‘ra sensatsionlik ustuvor bo‘lib, yoshlar auditoriyasining voqealarga bo‘lgan real tasavvurini o‘zgartirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar esa foydalanuvchi

e'tiborini maksimal darajada ushlab qolishga mo'ljallangan algoritmlar orqali ishlaydi; shu sababli, hissiy jihatdan kuchli, vizual jozibali va ko'pincha konnotativ tildagi kontent tez tarqaladi. Ayniqsa, huquqbuzarliklar, zo'ravonlik yoki mojarolar haqidagi materiallar dramatisatsiya va sensatsionalizm elementlarini o'z ichiga oladi, bu esa voyaga yetmaganlarning nutqiy faoliyatida emotsional ifodalar, orttirilgan jargon va hissiy reaksiyalar ulushini oshiradi. Ushbu kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, turli axborot tarqatish kanallari voyaga yetmaganlarga turlicha darajada ta'sir ko'rsatadi, shu bois yoshlar bilan ishlashda bu farqlarni hisobga olgan holda media savodxonlikni rivojlantirish, kontent sifatini yaxshilash va psixologik himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov X. Tahlillar, o'rganishlar, natijalar //Postda, 2025 yil 10 iyul. – № 28.
2. Feyrklou N. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research. London: Routledge, 2003. – 270 p.
3. Козина Е. А. Лингвистические особенности текстов правовой направленности в СМИ //Вестник Челябинского государственного университета, 2022.